

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA KOREYS TILI FANI
BO‘YICHA NOMZODLARINI TANLOV ASOSIDA
ISHGA QABUL QILISH SINIVI UCHUN
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA KOREYS TILI FANI BO'YICHA NOMZODLARNI TANLOV ASOSIDA ISHGA QABUL QILISH SINOVI UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya koreys tili fani bo'yicha nomzodlarni ishga qabul qilish sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi koreys tili fani mutaxassislarining fan bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat.

Test topshiriqlari kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan bilimlarni tanish va notanish vaziyatlarda qo'llash, muammoli holatni tahlil qilish hamda maqbul yechimni tanlashga yo'naltiriladi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2026-yil 15-iyundagi 203-son "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarini tanlov asosida ishga qabul qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i.

III. Baholash qamrovi

Koreys tili fani bo'yicha 40 ta test topshirig'i taqdim etiladi va ularni bajarish uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Test topshiriqlarida yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1), moslashtirishni talab qiladigan (Y2) hamda ketma-ketlikni talab qiladigan (Y3) yopiq turdagi topshiriqlardan foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim hamda ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Mutaxassislik fani bo'yicha tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti

1- jadval

Mazmun sohasi	Baholanadigan konstruktlar	Test topshiriqlari soni
I. KOREYS TILI		40 ta
1. Tilning amaliy qo'llanilishi (1 - 35 savollar)		

Fonetika	- Minimal juftliklar (minimal pairs) orqali ma'no farqlovchi tovushlarni kontekstga qarab ajratish (masalan: ship/sheep, bad/bed); - Gapning mazmuniga qarab mantiqiy urg'u (sentence stress) qaysi so'zga tushishini belgilash; - Savol turlari yoki his-tuyg'u ifodasiga ko'ra ohangning ko'tarilishi yoki pasayishini (rising/falling intonation) to'g'ri ko'rsatilgan variantni tanlash.	4
Grammatika	- grammatik strukturaning nomini va qo'llanilish o'rinlarini tanlash; - berilgan kontekstga mos grammatik birlik tanlash; - berilgan nutq namunasida grammatik xatoni topish va tushuntirish; - grammatik xato sababini berilgan variantlar ichidan tanlash; - berilgan gapning grammatik jihatdan to'g'ri o'zgartirilgan variantini aniqlash; - o'xshash grammatik shakllardan ma'noga eng mosini tanlash - berilgan grammatikaga mos keladigan antonim grammatikani aniqlash.	13
Leksika	- berilgan kontekstga mos leksik birlikni tanlash; - berilgan leksik birlikning kontekstdagi ma'nosini aniqlash; - berilgan leksik birlikka kontekstga mos sinonimni tanlash; - berilgan leksik birlikka kontekstga mos antonimini tanlash; - berilgan leksik birlikka kontekstga mos omonimini tanlash; - so'z yasalihi qoidalari asosida berilgan kontekstga mos so'z yasash; - ma'nosi yaqin bo'lgan leksik birliklar orasidan kontekstga eng mosini tanlash (near-synonyms: say / tell / speak / talk).	12

Pragmatika	- berilgan vaziyatga mos og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasini tanlash; - berilgan og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasining kontekstda nazarda tutilgan ma’nosini anglash (literal meaning (to‘liq ma’no), irrelevant interpretation, opposite meaning, exaggerated meaning); - diskurs (suhbat) asosida mos javobni tanlash (random statement, off-topic comment, irrelevant fact, confusing remark); - xohish yoki niyatni farqlash (giving direct order, expressing anger, asking irrelevant question, making a statement unrelated to intent).	6
2. O‘qib tushunish (36 - 40 savollar)		
O‘qib tushunish	- matnning asosiy g‘oyasi, maqsadi va auditoriyasini, muallif pozitsiyasini aniqlash; - matnda ochiq aytilmagan ma’lumotlar, fikrlar, g‘oyalarni anglash; - matndagi fakt va fikrni farqlash; - matnda tasvirlangan voqealar ketma-ketligini tushunish; - matn qismlari o‘rtasidagi mantiqiy va diskursiv bog‘lanishlarni tushunish (masalan, sabab-oqibat, qarama-qarshilik, izohlash, ketma-ketlik).	5

Test topshiriqlarining kognitiv ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

2- jadval
Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi
1	Bilish va tushunish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanilishini tushunish
2	Qo‘llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llay olish
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir

to'g'ri javobga 2,5 ball, noto'g'ri javob uchun ball berilmaydi. Umumiy eng yuqori natija 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Test topshiruvchi imtihonga shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan keladi va test tashkilotchisi tomonidan belgilangan tartibga rioya qiladi. Imtihon boshlanishidan oldin test topshiruvchilarga topshiriqlarni bajarish hamda javoblarni belgilash tartibi tushuntiriladi.

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet, quloqchin, elektron eslatma, ruxsat etilmagan bosma yoki elektron materiallardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish va nazoratchi ko'rsatmalariga amal qilmaslik taqiqlanadi. Qoidabuzarlik aniqlanganda, u belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va test topshiruvchi imtihondan chetlashtirilishi mumkin.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. 이숙희, 김숙희 문화가 있는 한국어 읽기 1 다락원 (2019)
2. 이숙희, 백다흰 문화가 있는 한국어 읽기 2 다락원 (2019)
3. 이숙희, 박인공, 한지희 문화가 있는 한국어 읽기 3 다락원 (2019)
4. 이숙희, 장지은, 한지희 문화가 있는 한국어 읽기 4 다락원 (2019)
5. 이숙희, 백다흰, 김숙희 문화가 있는 한국어 읽기 5 다락원 (2020)
6. 정성준 서울대 한국어 1B 서울대 학교 언어교육원 (2013)
7. 정성준 서울대 한국어 2A 서울대 학교 언어교육원 (2013)
8. 정성준 서울대 한국어 2B 서울대 학교 언어교육원 (2013)
9. 전영철 서울대 한국어 3A 서울대 학교 언어교육원 (2015)
10. 전영철 서울대 한국어 3B 서울대 학교 언어교육원 (2015)
11. Fun fun Korean 재미있는 한국어 2
12. Lee Suk-hee, Kim Sook-hee, Oh Jeong-min Complete Guide to the TOPIK 2 다락원 (2018)

13. 조정균 비타민 한국어 2 다락원 (2017)

14. Fun fun Korean 재미있는 한국어 3

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.